https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

**Shodiboyeva Dilzoda Farhodjon qizi**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi
dilzoda4193@gmail.com

# IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYA QILISHDA XORIJIY INVESTITSIYALAR HOLATI TAHLILI XORIJ MISOLIDA

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada iqtisodiyotning transformatsiya jarayonida xorijiy investitsiyalarning ahamiyati, ularning samaradorligi, afzallik va kamchiliklari ko‘rib chiqilgan. Xitoy misolida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muvaffaqiyatli modellari o‘rganilgan hamda ushbu tajribalar asosida O‘zbekiston uchun amaliy xulosalar ishlab chiqilgan. Maqolada statistik ma’lumotlar, xalqaro reytinglar — “Global raqobatbardoshlik indeksi”, “Global innovatsion indeks” va “Biznes muhiti hafi indeksi” tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, barqaror makroiqtisodiy muhit, innovatsion rivojlanish va investorlarga yaratilgan qulay sharoitlar mamlakatning investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy omillar ekanligi aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** Globalizatsiya, xorijiy investitsiyalar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI), investitsion muhit, iqtisodiy transformatsiya, Xitoy tajribasi, Singapur modeli, global raqobatbardoshlik indeksi, iqtisodiy rivojlanish, innovatsion salohiyat.

# АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ПРИМЕРЕ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

**Аннотация:** В данной статье рассмотрено значение иностранных инвестиций в процессе трансформации экономики, их эффективность, преимущества и недостатки. На примере Китая изучены успешные модели привлечения иностранных инвестиций, а также на основе данного опыта

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

выработаны практические рекомендации для Узбекистана. В статье проанализированы статистические данные и международные рейтинги — «Индекс глобальной конкурентоспособности», «Глобальный инновационный индекс» и «Индекс риска деловой среды». По результатам исследования установлено, что устойчивая макроэкономическая среда, инновационное развитие и благоприятные условия для инвесторов являются основными факторами, определяющими инвестиционную привлекательность страны.

**Ключевые слова:** глобализация, иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции (ПИИ), инвестиционная среда, экономическая трансформация, опыт Китая, модель Сингапура, индекс глобальной конкурентоспособности, экономическое развитие, инновационный потенциал.

## ANALYSIS OF THE STATE OF FOREIGN INVESTMENTS IN THE TRANSFORMATION OF THE ECONOMY: THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES

**Abstract:** This article examines the importance of foreign investments in the process of economic transformation, their effectiveness, advantages, and disadvantages. Using China as an example, successful models of attracting foreign investments are analyzed, and practical recommendations for Uzbekistan are developed based on this experience. The study also analyzes statistical data and international rankings such as the “Global Competitiveness Index,” “Global Innovation Index,” and “Business Environment Risk Index.” The results indicate that a stable macroeconomic environment, innovative development, and favorable conditions for investors are the key factors determining a country’s investment attractiveness.

**Keywords:** globalization, foreign investments, foreign direct investment (FDI), investment environment, economic transformation, China’s experience,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Singapore model, Global Competitiveness Index, economic development, innovation potential.

## KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida globallashuv jarayonlari jadal kechmoqda. Ushbu jarayonga integratsiyalashuv dunyoning yetakchi mamlakatlari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy yo‘nalishlarda olib borilayotgan davlat siyosatini o‘zaro manfaatdorlik asosida muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Mazkur nuqtayi nazardan qaralganda, O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘zining hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi, strategik geografik joylashuvi, tabiiy resurslar salohiyati hamda hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyaviy siyosati orqali muhim o‘rin egallaydi. Bu omillar mamlakatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish zarurligini yanada kuchaytiradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy transformatsiya sharoitida xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga ta’siri masalasi ko‘plab iqtisodchi olimlarning turli davrlarda olib borgan ilmiy tadqiqotlari va tahlillarida keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida baholangan. Jumladan, J. Dunning tomonidan ishlab chiqilgan “eklektik paradigma” xorijiy investitsiyalar harakatini izohlovchi muhim nazariy asos sifatida e’tirof etiladi.[1]

N.G‘. Karimovning ilmiy qarashlariga ko‘ra, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rivojlantirish makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, huquqiy va ma’muriy shart-sharoitlarni takomillashtirish, shuningdek, barqaror va prognoz qilinadigan soliq tizimini shakllantirish hamda

[1] Dunning, J. H. (1988). *The Eclectic Paradigm of International Production: A Restatement and Some Possible Extensions*. Journal of International Business Studies.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish bilan chambarchas bog‘liqdir.[2]

U.S. Nodirxanov o‘z tadqiqotlarida mintaqalar miqyosida investitsiya faolligini kuchaytirish mexanizmlarini, hududlarda investitsiya muhitini baholash usullarini hamda imtiyozli investitsiya loyihalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali qulay investitsiya muhitini shakllantirish masalalarini tahlil qiladi.[3]

D. G‘ozibekov va E. Nosirovlarning ilmiy ishlarida esa investitsion salohiyatni oshirish jarayonida soliq yukini optimallashtirish, fond bozorlari rolini kuchaytirish, shuningdek, xususiy xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish uchun qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaratish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning samaradorligi o‘rganilgan.

## METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotning transformatsiya jarayoniga xorijiy investitsiyalar ta’siri samarasi, transformatsiyada investitsiyalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari, iqtisodiyotni transformatsiyasida xorijiy investitsiyalar ta’sirini tahlil qilish, uni yanada rivojlantirish va shakllantirish yo‘nalishlarini aniqlashdir. Mavzuni ilmiy o‘rganish, statik tahlillar, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlarda shakllangan boy amaliy tajribalar, amalga oshirilgan institutsional islohotlar hamda qabul qilingan strategik qaror va chora-tadbirlarning mohiyatini chuqur o‘rganish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ilmiy asosda tanqidiy tahlil qilish milliy iqtisodiyot rivojini jadallashtirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda to‘plangan tajribalar

[2] Karimov N.G‘. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b.
[3] Нодирханов У.С. Приямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт проблемы, перспективы роста. - Т.: “Fan va texnologiya”,2011. 184 б.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

va zamonaviy iqtisodiy tendensiyalar doimiy ravishda yangilanib, takomillashib bormoqda. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, investorlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, investitsiya faolligi hamda mamlakatlar raqobatbardoshligini oshirish bilan bog‘liq masalalar ushbu jarayonlarning muhim tarkibiy qismi sanaladi.[4]


1-rasmda keltirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2019–2023 yillar davomida Xitoy Xalq Respublikasiga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Jumladan, 2019 yilda mamlakatga jalb etilgan FDI hajmi qariyb 141 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilda global pandemiya sharoitiga qaramay, ushbu ko‘rsatkich 149 mlrd dollarga yetib, Xitoy dunyoda yetakchi o‘rinni egallagan.

2021 yilda xorijiy investitsiyalar oqimi 173 mlrd dollargacha oshib, ayniqsa texnologik va “yashil” iqtisodiyot yo‘nalishlarida sezilarli faollik kuzatilgan. 2022 yilda esa FDI hajmi 189 mlrd dollarga yetib, raqamli va ekologik sohalarga investitsiyalar jalbi yanada kuchaygan. 2023 yilda mamlakatga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 163–189 mlrd AQSh dollari oralig‘ida baholanadi. Natijada, 2019–2023 yillar davomida jami xorijiy investitsiyalar hajmi taxminan 815–841 mlrd dollarni tashkil etgan.

Mazkur yuqori ko‘rsatkichlarga erishilishiga Xitoyda xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar, barqaror investitsiya muhiti va yuqori darajadagi investitsion jozibadorlik asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, mamlakatning “Global raqobatbardoshlik indeksi”, “Global innovatsion indeks” hamda “Biznes muhiti indeksi” kabi nufuzli xalqaro reytinglarda doimiy ravishda faol ishtirok etib kelayotgani ushbu natijalarning mustahkam asosga ega ekanligini tasdiqlaydi.

[4] Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo‘llanma. –Toshkent:Baktria press, 2017.-320 b.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026




**1-rasm. 2019-2023 yillarda Xitoyga jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning yillik oqimi(milliard AQSH dollarida)[5]**

Bugungi kunda jahon miqyosida xorijiy kapitalni jalb etish borasida mamlakatlar o‘rtasida kuchli raqobat shakllangan. Xorijiy investitsiyalar hajmi va sifati, shuningdek, ularni jalb etishda qulay shart-sharoitlardan samarali foydalanish masalalari rivojlangan mamlakatlarda investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishga qaratilgan turli innovatsion mexanizmlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy rivojlanish sur’atlari yuqori bo‘lgan, mahsulot va xizmatlari deyarli barcha davlatlar bozorlarida keng tarqalgan hamda “Made in China” brendi bilan tanilgan Xitoy Xalq Respublikasining xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasidagi yutuqlari va ularni shakllantirgan omillar alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. Mazkur tajriba ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, undan amaliy jihatdan to‘liq foydalanish masalasi hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Xitoy iqtisodiyotining jadal rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan muhim omillardan biri investorlar uchun zarur bo‘lgan hududiy imkoniyatlar va iqtisodiy salohiyatni aks ettiruvchi maxsus axborot bazalarining (hududiy pasportlarning) ishlab chiqilganligidir. Shu bilan birga, mamlakatda nisbatan arzon ishchi kuchining

[5]Xitoy Savdo vazirligi (MOFCOM) va xalqaro iqtisodiy ma'lumotlardan olingan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mavjudligi ham xorijiy investorlar uchun muhim rag‘batlantiruvchi omil sifatida xizmat qilgan. Mazkur axborot bazalarining ochiq internet-resurslar orqali taqdim etilishi Xitoy korxonalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytirish hamda xalqaro biznes hamkorlikni rivojlantirishga zamin yaratdi.

Hozirgi kunda Xitoyning jahon iqtisodiyotidagi yetakchi mavqeini mustahkamlashda va iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini ta’minlashda uning ochiq iqtisodiy siyosati, ijobiy xalqaro imiji hamda yuqori investitsion jozibadorligi muhim rol o‘ynamoqda. Shu bilan birga, ayrim ekspertlarning ta’kidlashicha, mamlakatning jahon hamjamiyatiga tezkor integratsiyalashuvi va ochiqlik siyosati Xitoy fuqarolari hamda xalqaro jamoatchilik tomonidan turlicha, jumladan, ayrim hollarda salbiy baholanmoqda.

Mazkur qarashlar, aslida, zamonaviy Xitoyda kechayotgan jarayonlarning mohiyatini yetarli darajada anglamasdan turib bildirilgan xulosalar ekanligini ta’kidlash joiz. Chunki Xitoy rahbariyati tomonidan mamlakat rivojlanish strategiyasida qator ustuvor yo‘nalishlarga ongli ravishda alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, tashqi dunyo bilan barqaror va mustahkam aloqalarni rivojlantirish, davlat va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘zaro ishonch va sheriklikka asoslangan munosabatlarni shakllantirish, jahon hamjamiyati nigohida Xitoyning ishonchli va barqaror hamkor sifatidagi ijobiy imijini mustahkamlash ustuvor vazifalar sifatida belgilanmoqda.

Shuningdek, mamlakat taraqqiyotini faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali emas, balki innovatsiyalarga tayangan holda, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga yo‘naltirilgan rivojlanish modelini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ana shu omillarni inobatga olgan holda, 2004 yildan boshlab Xitoy hukumati mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish masalasini tizimli ravishda hal etishga kirishdi.

So‘nggi o‘n yillikda Xitoy xalqaro maydonda o‘z nufuzi va obro‘sini mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli va izchil chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Xususan, Osiyo–Tinch okeani Hamkorlik Tashkiloti (APEC), Shanxay

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) doirasida iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish bilan bir qatorda, erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish yo‘nalishida Xitoy–Arab va Xitoy–Afrika hamkorlik mexanizmlarini faol rivojlantirib kelmoqda.[6]

Xitoy davlati Butunjahon savdo tashkiloti (JST) a’zo bo‘lishi bilan ko‘plab sohalarda tub islohotlarni amalga oshirdi. Xususan, quyidagi muhim yo‘nalishlarda: turli xildagi tariflarni pasaytirish; iqtisodiyotning yetakchi sohalari, xususan xizmatlar: telekommunikatsiya, sug’urta, bank, savdo, logistika sohalariga yo‘naltiriladigan investitsiyalarga to‘siq va cheklovlarni olib tashlash bilan bog’liq chora-tadbirlarni keltirish mumkin. Ushbu yaratilgan imkoniyat va sharoitlar tufayli nafaqat transmilliy kompaniyalar, balki kichik va o‘rta hajmdagi xorijiy kompaniyalarning Xitoy davlatiga investitsiya kiritish bilan bog’liq faolligi yanada oshdi. Shular tufayli Xitoyga kiritilgan TTXI hajmining oshishi yildan-yilga o‘sib bordi.

Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishi natijasida 2006 yildan xorijiy bank muassasalari uchun geografik va operatsion cheklovlar olib tashlandi. Buning oqibatida xorijiy banklarning shu’ba muassasalari tashkil etildi va ular tomonidan Xitoyning istalgan hududida rezedentlar uchun yuanda operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog’liq tartiblar o‘rnatildi. Taqdim etilgan imkoniyatlardan Angliya banki-Standart Chartetered Bank birinchilardan bo‘lib foydalandi hamda boshqa bir qator banklarning: Citigroup (AQSH), HCBCN (Angliya), ABN AMRO (Niderlandiya), Bank of east Asia (Gonkong) va Hang Seng Bank (Gonkong) banklarining kirib kelishini ta’minladi. 2008-2012 yillarda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisoiy inqirozi davrida Xitoy davlati xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini pasaytirmaslik maqsadida “yashil yo‘lak” tizimini amalga oshirdi.

Ushbu tizimdan xorijiy kapitalaga ega bo‘lgan korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini rag’batlantirish masalalari o‘rin olgan bo‘lib, bu, o‘z navbatida, investorlar uchun “himoya yostig’i” vazivasini o‘tadi. Amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-ma’muriy va

[6] Vahabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik.T58b

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

siyosiy-tashkiliy chora-tadbirlar sabab Xitoy keyingi besh yilda eng yirik savdo-sotiqni amalga oshirayotgan hukmron davlatlardan biriga aylandi[7]. UNTAD tomonidan e'lon qilib kelinayotgan hisobotlarda XXR kapitalning importi va eksporti bo'yicha lider mamlakat sifatida reytingda kuchli ikkilikdan joy olib kelmoqda. Inqirozdan oldingi davrlarda (2005-2007) xorijiy investitsiyalar importi o'rtacha 76,2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, bu jahondagi umumiy ko'rsatkichning (TTXI importining) 5,4 foiziga to'g'ri kelgan. 2020 yilga kelib esa Xitoy 149 mlrd. dollar TTXI o'zlashtirdi. (Qarang: 1.3- rasm).

Agar ushbu statistik ko'rsatkichlarga Xitoy Xalq Respublikasi uchun "investitsion darvoza" bo'lgan Gonkong va Singapur davlatlarini qo'shadigan bo'lsa, bu farq yanada kamayadi. 2020 yilda Gonkong 119 mlrd dollar qiymat ko'rinishida TTXI qabul qilgan bo'lsa, Singapur davlati 91 mlrd. dollar TTXI qabul qildi.

Tadqiqotimizni yanada chuqurlashtirish, uning saviyasini boyitish maqsadida Singapur davlatining tajribasini ham tahlil qilamiz.


Rivojlanish darajasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etgan, o'zining boy tajribasi va intellektual salohiyatining yuksakligi bo'yicha dunyo mamlakatlari ichida yuqori o'rinlarda turadigan, aholisi soni unchalik ham katta bo'lmagan, ammo kompyuter dasturlarini yaratish, telekommunikatsiya sohasida salmoqli nufuzga ega bo'lgan, Jahon banki tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda jon boshiga YAIM ishlab chiqarish bo'yicha (xarid quvvati pariteti bo'yicha) 3-o'rinda turgan, "Osiyo yo'lbarslari", deb nom olganlardan biri bo'lmish Singapur davlatida ham investitsion muhitni yaxshilash, uning jozibadorligini oshirish yuzasidan boy tajriba to'plangan.

Quyidagi keltirilgan 2-rasmdan biz ko'rishimiz mumkinki, jamg'arilgan TTXIlar, 2020-2024 yillar uchun 20 ta eng yuqori reytingga ega bo'lgan mamlakatlar orasida 4-o'rinni Avstraliya davlati egalagan bo'lib, 2019 yilda 91 mlrd. dollar hisobida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar qabul qilgan.

[7] Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo'llanma. –Toshkent:Baktria press, 2017.-320 b.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Bu yutuqlarga erishishining asosiy omilini quyidagicha izohlashimiz mumkin: Singnapur davlatining rivojlanish yo‘li, qo‘lga kiritgan “iqtisodiy mo‘jizasi” bilan shug’ullangan barcha olimlarning fikri bir muhim nuqtaga borib taqaladi. U ham bo‘lsa, Singapurda qulay investitsiya muhitining yaratilganligi. Aynan ushbu holat tufayli investorlar tomonidan bu yangi davlatga ko‘plab loyihalar kiritish amalga oshdi, YAIM hajmi yildan-yilga keskin ortib bordi. Bugungi kunda ham investorlar tomonidan Singapur davlatiga hech ikkilanmasdan kapital mablag’lar yo‘naltirib kelinmoqda. U yerdagi investitsion muhit jozibadorligi donor mamlakatlarning doimiy qiziqishiga sabab bo‘lmoqda.




**2-rasm. Jamg’arilgan TTXIlar, 2020-2024 yillar uchun (20 ta eng yuqori reytingga ega bo‘lgan mamlakatlar misolida), mlrd. AQSH dollarda[8].**

Investitsion muhitning sog’lomligi, jozibadorligini davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini aks etuvchi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali ham baholash mumkin.

Dunyo mamlakatlarining ko‘p yillik tarixiy tajribasidan ma’lumki, mamlakatdagi iqtisodiy salohiyati past bo‘lgan hududlarni iqtisodiy jihatdan

[8] https://topforeignstocks.com/2020/09/22/the-top-20-foreign-direct-investment-fdi-receiving-countries-2020/ ,Xalqaro valyuta fondi (IMF), Jahon banki va UNCTAD ma’lumotlaridan olingan statistik ma’lumotlar asosida tuzilgan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

“sog’lomlashtirish” borasida milliy va xorijiy investitsiyalarning o‘rni yuqori hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni, birinchi navbatda, to‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb etish borasida jahondagi mamlakatlarning turlicha yondashuvlari mavjud. Bu borada erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish uzoq yillar davomida samarali hisoblangan iqtisodiy chora-tadbirlardan biridir.

Global raqobatbardoshlik indeksi global tadqiqotlar va iqtisodiy raqobatbardoshlik darajasi bo‘yicha dunyo mamlakatlarining reytingi hisoblanadi. Mazkur reyting Jahon iqtisodiy forumi metodologiyasiga binoan ommaga taqdim etiladigan statistika va kompaniya rahbarlarining global so‘rovi natijalariga asoslangan. Shu maqsaddan kelib chiqib biz Global raqobatbardoshlik indeksi bo‘yicha eng yuqori reytinga ega bo‘lgan lider-davlatlarni ko‘rib chiqamiz. (1-jadval).

Global raqobatbardoshlik indeksi 141 ta mamlakat bo‘yicha quyida berilgan sohalar yuzasidan 0 dan 100 ballgacha baholanib, uning o‘rtachasi chiqariladi. Bular quyidagilar: institutlarning sifati, infrastruktura, makroiqtisodiy barqarorlik, sog’liqni saqlash va boshlang’ich ta’lim, oliy ta’lim va qayta tayyorlash, tovar va xizmatlar bozorlarining samaradorligi, mehnat bozorining samaradorligi, moliya bozorlarining rivojlanganligi, texnologik taraqqiyot darajasi, ichki bozor ko‘lami, kompaniyalarning raqobatbardoshligi, innovatsion salohiyat bilan bog’liq ko‘rsatkichlardan iboratdir.

**1-jadval.**

**Global raqobatbardoshlik indeksi bo‘yicha eng yuqori reytinga ega bo‘lgan 10 ta lider-davlatlar, 2024-2025 yillar[9]**

| № | Davlatlar | Kuchli tomonlari |
|---|---|---|
| 1. | Singapur | Jahon miqyosida birinchi o‘rinda, iqtisodiy barqarorlik va innovatsion salohiyat bilan yetakchi. |
| 2. | Shveytsariya | Innovatsiya va barqarorlik bo‘yicha kuchli ko‘rsatkichlar |

[9] https://asia.nikkei.com/Economy/Hong-Kong-tumbles-down-IMD-world-competitiveness-ranking

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

| | | |
|---|---|---|
| | | bilan ikkinchi o‘rinda. |
| **3.** | Daniya | Kuchli ijtimoiy va yashash ko‘rsatkichlari bilan uchinchi |
| **4.** | Irlandiya | Iqtisodiy samaradorlik va boshqaruv sohasida kuchli natijalar. |
| **5.** | Niderlandiya | Raqobatbardoshlikni qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmasi bilan yuqori o‘rinda. |
| **6.** | Shvetsiya | Innovatsiya va yashash sifati bo‘yicha kuchli davlat. |
| **7.** | Finlyandiya | Ta’lim va texnologik rivojlanish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega. |
| **8.** | Norvegiya | Barqaror yashash muhiti va kuchli ijtimoiy siyosat |
| **9.** | AQSh | Innovatsion texnologiyalar va biznes salohiyati bo‘yicha yuqori. |
| **10.** | Germaniya | Sanoat rivojlanishi va eksport salohiyati bilan tanilgan. |

1-jadvaldan biz ko‘rishimiz mumkinki, 10 ta eng yuqori reytinga ega bo‘lgan davlatlar ichida Singapur birinchi o‘rinni qayd etib kelmoqda. Aniq statistika ma’lumotlariga nazar soladigan bo‘lsak, sakkiz yildan buyon Singapur ushbu reytingning yetakchi o‘rinlaridan tushmay kelmoqda. Mazkur davlat global raqobatbardoshlik indeksining 12 ta ko‘rsatkichidan 4 tasi bo‘yicha 1 o‘rinni ya’ni bular: infrastruktura, sog’liqni saqlash va boshlang’ich ta’lim, oliy ta’lim va qayta tayyorlash, tovar va xizmatlar bozorlarining samaradorligi, 3 tasi ya’ni institutlarning sifati, mehnat bozorining samaradorligi, moliya bozorlarining rivojlanganligi bo‘yicha 2-o‘rinni egaladi. Ushbu natijalarni qayd etishiga mamlakatda oliy ta’lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha davlat tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotning transformatsiyasi, raqobatbardoshligi va barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Xitoy va Singapur tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb etish uchun davlat tomonidan aniq strategiya, qulay biznes muhiti, investorlarga kafolatlar va ochiq iqtisodiy siyosat zarur. Xitoyning investitsion siyosatidagi asosiy ustunlik — hududiy salohiyatni raqamlashtirish, xorijiy kapitalni himoya qilish va JST a’zoligidan samarali foydalanishdir. Singapur esa innovatsion iqtisodiy model, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va institutsional barqarorlik orqali jahonning eng jozibador investitsiya markazlaridan biriga aylangan. O‘zbekiston uchun bu tajribalar investitsion siyosatni yanada erkinlashtirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish hamda xalqaro standartlarga mos huquqiy tizimni rivojlantirish yo‘nalishlarida qo‘llanishi mumkin.

Xitoyning xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasidagi amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, investitsion jozibadorlikni oshirish ko‘p jihatdan tizimli, uzoq muddatli va muvofiqlashtirilgan davlat siyosatiga bog‘liq. Ushbu tajribani hisobga olgan holda, O‘zbekiston sharoitida quyidagi amaliy yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, hududlarning investitsion salohiyatini oshirish maqsadida viloyatlar va tumanlar kesimida yagona metodologiya asosida shakllantirilgan raqamli investitsiya ma’lumotlar bazalarini yaratish lozim. Mazkur bazalarda hududlarning infratuzilma darajasi, mavjud resurslar, mehnat bozori holati, soliq va bojxona preferensiyalari hamda erkin iqtisodiy zonalar imkoniyatlari aniq va ochiq tarzda aks ettirilishi zarur.

Ikkinchidan, davlat va xorijiy investorlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash orqali ishonchli sheriklik muhitini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda investitsiya loyihalarini ko‘rib chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini soddalashtirish, ma’muriy to‘siqlarni qisqartirish hamda

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

investorlar bilan doimiy muloqotga asoslangan institutsional platformalarni rivojlantirish talab etiladi.

Uchinchidan, O‘zbekistonning xalqaro investitsion maydondagi imijini yaxshilash xorijiy kapital oqimini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois mamlakatning investitsiya imkoniyatlarini xalqaro miqyosda targ‘ib etish, iqtisodiy diplomatiya vositalaridan samarali foydalanish hamda nufuzli global reytinglardagi o‘rnini yaxshilashga qaratilgan izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

To‘rtinchidan, xorijiy investitsiyalarni yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan sohalarga yo‘naltirish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi lozim. Xususan, innovatsion texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energetika va ekologik toza ishlab chiqarish yo‘nalishlarida xorijiy investorlar uchun qo‘shimcha rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, erkin iqtisodiy zonalarning faoliyat samaradorligini oshirish orqali ularni hududiy iqtisodiy o‘sish drayverlariga aylantirish zarur. Bunda zonalarning aniq ixtisoslashuvini belgilash, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro boshqaruv standartlarini joriy etish muhim hisoblanadi.

Oltinchidan, investitsiya siyosatida barqarorlik va ochiqlikni ta’minlash investorlar ishonchini mustahkamlovchi asosiy shartlardan biridir. Shu nuqtai nazardan, investitsiya va soliq qonunchiligini prognoz qilinadigan va uzoq muddatli asosda yuritish, normativ-huquqiy bazaning izchilligini ta’minlash xorijiy kapitalni jalb etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Dunning, J. H. (1988).* The Eclectic Paradigm of International Production: A Restatement and Some Possible Extensions. *Journal of International Business Studies.*
2. Karimov N.G‘. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b.

3. Нодирханов У.С. Приямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт проблемы, перспективы роста. - T.: “Fan va texnologiya”,2011. 184 б.
4. G‘ozibekov D, Nosirov E. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. -T.: “Iqtisod-Moliya”. 2007, -B.92
5. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo‘llanma. –Toshkent:Baktria press, 2017.-320 b.
6. Xitoy Savdo vazirligi (MOFCOM) va xalqaro iqtisodiy ma'lumotlardan olingan.
7. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo‘llanma. –Toshkent:Baktria press, 2017.-320 b.
8. https://asia.nikkei.com/Economy/Hong-Kong-tumbles-down-IMD-world-competitiveness-ranking
9. https://topforeignstocks.com/2020/09/22/the-top-20-foreign-direct-investment-fdi-receiving-countries-2020/ ,Xalqaro valyuta fondi (IMF), Jahon banki va UNCTAD ma’lumotlaridan olingan statistik ma’lumotlar asosida tuzilgan.
10. https://asia.nikkei.com/Economy/Hong-Kong-tumbles-down-IMD-world-competitiveness-ranking